



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

Феруз Нематуллаевич Абилов Қишлоқ ҳудудларида агросервис хизматларини кўрсатувчи инсон ресурслари фаолиятини такомиллаштириш	69
Нажмиддин Раҳматуллаевич Абдувоҳидов Хизмат кўрсатиш соҳасида иш ўринларини яратишда сохта иқтисодиёт ва уни баргараф этишнинг амалий йўналишлари	74
Мурод Нозирович Ибрагимов Перспектива развития услуг по внедрению стандартов GxP в Узбекистане	79
Рустам Алижонович Мусабоев Подходы к стратегическому планированию развития сферы бытовых услуг республики узбекистан	84
Ulug'bek Ziyadullayevich Narmurodov Pochta va kuryerlik xizmat ko'rsatishni rivojlantirish holati va tahlili (Samarqand viloyati misolida)	88
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналар самарадорлигини баҳолашни ва таҳлил қилиш усуллари такомиллаштириш	94
Shohina Xujmaxmatovna Pirova Ichimlik suvi ta'minotini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	98
Nodira Abdullayevna Eshquvvatova Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash	102
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Юлдуз Пирназаровна Урунбаева Ўзбекистонда музей туризмни бозорини ривожлантириш йўллари	107
Дилбар Хасановна Асланова, Маликабону Фуркатовна Раупова Совершенствование организационно-экономического механизма развития малого гостиничного бизнеса	113
Темурбек Бобурмирзо ўғли Саломов Зиёрат туризмида кўрсатиладиган хизматлар турларини ривожлантиришнинг стратегик йўналишлари ва тавсифи	116
Райхона Садриддиновна Амриддинова Ребрендинг как стратегический инструмент повышения конкурентоспособности гостиничных предприятий	121
Ikrom Abdurashitovich Shukurov Turizm sohasining barqaror rivojlantririshda ekonometrik modellashtirishning xorij tajribasi	124
Sarvar Adxamovich Abduxamidov Turistik mintaqalar: ularni tashkil qilish va rivojlantirishda rayonlashtirish xususiyatlari	130
Дониёр Журакулович Абдуразаков Туризм қишлоғи концепцияси ва унинг назарий-илмий тавсифлари таҳлили	135
Mekhruza Sukhrobjon qizi Vafokulova The role of family-owned businesses in the sustainable development of tourism in Samarkand	138
Diyora Narzieva Modern approaches to the development of cultural tourism	144
Sadoqat Quدراتовна Bultakova Xizmatlar sohasini diversifikatsiyalashning Yaponiya tajribasi	150

Ulug‘bek Ziyadullayevich Narmurodov – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali “Axborot texnologiyalari”
kafedrasasi assistenti

ПОЧТА VA KURYERLIK XIZMAT KO‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISH HOLATI VA TAHLILI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya. Mazkur maqolada pochta va kuryerlik xizmatlarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, ularning hududiy iqtisodiy faoliyatga ta’siri hamda xizmatlar samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Xususan, Samarqand viloyati misolida mavjud xizmat ko‘rsatish tarmog‘i, infratuzilma darajasi, yetkazib berish tezligi, xizmatlar hajmi va raqamli texnologiyalarni joriy etish holati o‘rganilgan. Maqolada, shuningdek, pochta va kuryerlik xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga doir taklif va tavsiyalar ham ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, servis, raqamlashtirish, pochta va kuryerlik xizmatlari, raqamli transformatsiya, logistika, raqamlashtirish, innovatsiya, samaradorlik.

Kirish. Bozor iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida logistika tizimlari va pochta-kuryerlik xizmatlari nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ijtimoiy xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat sharoitida bu sohaning o‘rni bugungi kunda beqiyos sanaladi. Mamlakatlararo elektron savdo, masofaviy ishlash, “one-click” xaridlar, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi kabi omillar tufayli pochta va kuryerlik xizmatlariga bo‘lgan talab ham yildan-yilga oshib bormoqda. Global miqyosda logistika tarmoqlarining raqobatbardoshligi, xizmat sifati, mijoz ehtiyojlariga tezkor javob bera olish salohiyati iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarida muhim indikator sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda bu borada keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan “pochta xizmatlarini iqtisodiyotning daromad keltiruvchi tarmog‘iga aylantirish” g‘oyasi ham bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muammolardan biri ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, mavjud infratuzilmaning eskirganligi, xizmatlar sifati va yetkazib berish tezligining pastligi, raqamlashtirish darajasining nomutanosibligi kabi omillar soha rivojiga to‘siq bo‘lib qolayotganligini ham alohida takidlab o‘tish joiz. [1].

Samarqand viloyati aholisi to‘rt milliondan oshgan, yirik savdo va turizm markazi bo‘lib, logistikaga bo‘lgan ehtiyoji yuqori bo‘lgan hududlar sirasiga kiradi. Viloyatda faoliyat yuritayotgan davlat va xususiy pochta-kuryerlik tashkilotlari soni oshib borayotgan bo‘lsa-da, mavjud xizmatlar sifati, qamrovi va innovatsion imkoniyatlari bo‘yicha hali ham cheklovlar mavjud. Jumladan, elektron pochta kuzatuv tizimlarining barcha tumanlarda joriy etilmaganligi, jo‘natmalarni saralashdagi qo‘lbola tizimlar, yuqori malakali kadrlar tanqisligi hamon muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pochta va kuryerlik xizmatlarining zamonaviy rivojlanish bosqichlari ko‘plab ilmiy izlanishlarning markazida turibdi. O‘zbekistonlik olimlardan S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, G.R. Baltabayeva, K.X. Abdurahmonov va O.M. Abdullayev o‘z izlanishlarida raqamli infratuzilma, xizmatlar samaradorligi va davlat xizmatlarini integratsiyalash masalalarini chuqur o‘rganishgan. [2] [3]. Ular, ayniqsa, pochta tizimining raqamli inklyuzivlikda tutgan o‘rniga e’tibor qaratgan. O‘z izlanishlarida iqtisodchi olimlar tomonidan pochta tizimi orqali aholining barcha qatlamlariga davlat xizmatlarini yetkazib berish imkoniyatlariga alohida urg‘u berganlar.

Shuningdek, xorijiy adabiyotlarda ham pochta tizimlarining transformatsiyasi muhim mavzulardan biri sanaladi. Masalan, R. Chugh va N. Sharma o‘z tadqiqotlarida Hindiston pochta tizimining raqamli integratsiyasi va bank xizmatlari bilan uyg‘unlashuvini ko‘rsatgan. [4] M. H. Lee esa Janubiy Koreyada pochta tizimiga sun‘iy intellekt va avtomatik saralash tizimlarining joriy qilinishi xizmatlar tezligi va aniqligini sezilarli darajada oshirganini isbotlagan. [5]

Yana bir muhim manba sifatida UPU (Universal Postal Union)ning 2023-yildagi global tahlil hisobotini keltirish mumkin. Unga ko‘ra, zamonaviy pochta xizmatlari faqatgina xat va

posilka yetkazish emas, balki raqamli to'lovlar, onlayn identifikatsiya, davlat xizmatlari va elektron savdoni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaga aylanishi kerak. [6].

Q.J.Mirzaev, S.B.Boyoqulov, B.Q.Janzakov “Raqamli iqtisodiyot” nomli o'quv qo'llanmasida raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanishi bilan bog'liq texnologiyalar haqida umumiy tushuncha berilgan, boshqaruvning yangi obyektlari - platformalar va biznes ekotizimlari, biznesni boshqarishning yangi tamoyillari tavsiflangan, elektron biznes va elektron tijoratni boshqarishning nazariy tamoyillari raqamli evolyutsiya ta'siri ostida biznes modellarini o'zgartirish nuqtayi nazaridan keltirilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar keltirilgan [7].

Shuningdek, World Bank tomonidan tuzilgan “Logistics Performance Index”da O'zbekistonning logistika samaradorligi past darajada ekani, ayniqsa pochta va kuryerlik segmentida kuchli islohotlarga ehtiyoj borligi ta'kidlangan. [8] Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pochta va aloqa xizmatlarini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, logistika infratuzilmasini yangilash va xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim omillardandir. Aynan mana shu yo'nalishlarda Samarqand viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning tahlili maqolaning keyingi bo'limida yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy maqolani yozish jarayonida ilmiy bilishning tizimli yondashuv, monografik kuzatish, tahlil, statistik abstrakt va mantiq fikrlash usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, mavzuni o'rganishda tahlil va sintez usulidan samarali foydalanilgan holda pochta va kuryerlik xizmat ko'rsatish holati tahlili bo'yicha izlanishlar olib borilib, xulosalardan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Tahlil va natijalar. So'nggi yillarda global miqyosda kuzatilayotgan raqamli transformatsiya, elektron tijoratning ekspansiyasi va mijoz ehtiyojlarining o'zgarishi O'zbekiston, jumladan, Samarqand viloyatidagi pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabning ortishiga olib keldi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyatda xizmatlar hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda. Xususan, 2020–2024-yillar oralig'ida pochta xizmatlari hajmi 88 foizga, kuryerlik xizmatlari hajmi esa 259 foizga ortgan. Bu holat sektorning iqtisodiy salmog'i ortayotganini va logistika tizimi ichida mustahkamlanib borayotganini anglatadi. Biroq xizmatlar hajmining o'sishi, infratuzilma, inson kapitali va xizmat sifati darajasining mutanosib rivojlanishini anglatmaydi. Tahlillardan ayon bo'ldiki, mavjud infratuzilma, ayniqsa tumanlardagi pochta punktlari va transport vositalari zamonaviy xizmatlarga bo'lgan talabni qondira olmayapti. Qolaversa, raqamlashtirish jarayonlari sekin kechmoqda, yagona kuzatuv tizimi yo'q, smart lockerlar mavjud emas, QR yoki RFID texnologiyalar keng joriy etilmagan. Buni so'ngi vaqtlarda pochta va kuryerlik xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatini kompyuter texnologiyalari bilan qurollanish darajasiga ham qarab tahlil qilishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

“O'zbekiston pochta” AJ hududiy filiallarda jamiyatning korporativ kompyuter tarmog'iga ulangan kompyuterlar soni (yillar kesimida) [11]

№	Hududlar filiallari	2018 yil	2020 yil	2022 yil	2024 yil
1	O'zbekiston Respublikasi	2217	2253	2686	3813
2	Qoraqalpoq filiali	124	60	180	256
3	Andijon filiali	138	58	130	185
4	Buxoro filiali	186	210	150	213
5	Jizzax filiali	110	100	120	170
6	Qashqadaryo filiali	175	198	198	281
7	Navoi filiali	132	130	125	176
8	Namangan filiali	194	139	195	277
9	Samarqand filiali	261	325	312	443
10	Surxondaryo filiali	232	84	222	315
11	Sirdaryo filiali	118	85	88	125
12	Farg'ona filiali	254	283	333	473
13	Xorazm filiali	146	110	115	163
14	Toshkent filiali	298	410	268	381

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilar ekanmiz, respublikada 2018 yilda

pochta xizmat ko‘rsatish hududiy filiallarda jamiyatning korporativ kompyuter tarmog‘iga ulangan kompyuterlar soni 2217 tani tashkil etgan, 2020-yilga kelib bu ko‘rsatkich 2253 ta, 2022 yilga kelib 2686 ta va 2024-yilga kelib bu tendensiya 3813 tani tashkil qilmoqda. Biroq raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida pochta va kuryerlik xizmatlariga talab ortib borish davrida tizimga ulangan kompyuterlar soni yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish maqsadida olib boriladigan islohotlar o‘zining samarasini berib kelmoqda. Ayniqsa raqamli texnologiyalarning kirib kelishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirishga munosib hissa qo‘shmoqda, aynisa, pochta va kuryerlik xizmatlarini raqamlashtirishi natijasida xizmat ko‘rsatishni sifati, ko‘lami va hajmini ortishiga olib kelishi natijasida aholi turmush farovonligi yuksalishi, ortiqcha vaqtning tejalishi va qayta tiklanmas resurslarning tejalishiga olib kelmoqda. Xususan, 2024-yil holatiga ko‘ra, Samarqand viloyatida “O‘zbekiston pochta” AJning 14 ta tuman filiallari va 40 dan ortiq pochta bo‘limlari faoliyat yuritmoqda. Xizmatlarning geografik qamrovi keng bo‘lsa-da, infratuzilmaning aksariyati **mustaqillik yillarda qurilgan binolar, eskirgan transport vositalari va qog‘oz shaklidagi yurituvga** tayangan (2-jadval).

2-jadval.


Samarqand viloyatida aloqa va pochta xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini holati [11]

T/R	Ko‘rsatkichlar	Miqdori (birlikda)	Holat tavsifi
1	Pochta filiallari soni	14	Har bir tuman markazida mavjud
2	Pochta punktlari	41	Ko‘p qismi qishloq joylarda joylashgan
3	Avtotransport vositalari	62	45 foizi 10 yildan ortiq foydalanilgan
4	Elektron kuzatuv tizimi	21	Yagona tizim mavjud emas
5	Smart locker (avtomatik qutilar)	0	Umuman joriy etilmagan

Jadval ma’lumotlari asosida aytish joizki, Viloyat bo‘yicha 14 ta tuman markazida pochta filiallari mavjud bo‘lishi bu geografik qamrov jihatidan ijobiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, 41 ta pochta punktlarning mavjudligi bu xizmatlarning aholiga yaqinlashishini bildiradi. Biroq ushbu punktlarning ko‘pchiligi qishloq joylarda joylashgan va moddiy-texnik bazasi, xodimlar salohiyati va xizmatlar tezligi bo‘yicha zamon talablariga javob bermaydi. Bu esa xizmat sifatining bir xilda emasligiga olib kelmoqda. Pochta jo‘natmalarini tez, xavfsiz va ishonchli yetkazib berishda avtotransport vositalarining ahamiyati juda katta. 62 ta transport vositasi mavjud bo‘lsa-da, ularning **45 foizi 10 yildan ortiq muddatdir ishlatilmoqda**, bu esa texnik xizmat ko‘rsatish, ishonchlilik va ekologik talablar bo‘yicha jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu holat jo‘natmalarning kechikishi, texnik nosozliklar, yetkazib berish sifatining pasayishi kabi salbiy oqibatlariga olib keladi. Hozirda viloyatda faqat 21 ta punktda elektron kuzatuv tizimi mavjud. Bu esa barcha pochta punktlarining yarmidan kamida raqamli kuzatuv vositalari mavjudligini anglatadi. Bundan tashqari, **markazlashtirilgan yagona tizim yo‘qligi**, mijozlar uchun real vaqt rejimida xizmatlarni kuzatishni murakkablashtiradi. Bu holat xizmatlar shaffofligi, ishonchlilik va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida keng qo‘llanilayotgan **smart locker** ya’ni avtomatlashtirilgan pochta qutilari Samarqand viloyatida joriy etilmagan. Bu esa xizmatlarning **24/7 rejimida, mijoz ishtirokisiz, tez va xavfsiz yetkazilishi** imkoniyatini cheklaydi. Bu texnologiyaning mavjud emasligi, ayniqsa, zamonaviy elektron tijorat bilan bog‘liq xizmatlarda katta to‘siq hisoblanadi.

1-rasm ma’lumotlari asosida 2020–2024-yillar oralig‘idagi ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Samarqand viloyatida pochta va kuryerlik xizmatlarining moliyaviy hajmi barqaror o‘sish trendini namoyon qilmoqda. Jumladan, 2020-yilda pochta xizmatlari hajmi 9,8 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu raqam 18,4 milliard so‘mga yetganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu 5 yil ichida qariyb ikki barobarga o‘sishni bildiradi. Bunday ijobiy dinamika pochta tizimi orqali amalga oshirilayotgan davlat xizmatlari, pensiya va boshqa ijtimoiy jo‘natmalarning barqarorligi bilan bog‘liq.

Kuryerlik xizmatlari bozorida esa yanada jadalroq o‘sish kuzatilmoqda. 2020-yilda bu sohaning hajmi 2,2 milliard so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 7,9 milliard so‘mga



1-rasm. Samarqand viloyatida pochta va kuryerlik xizmatlar hajmi [11]

etgan, ya'ni bu 3,5 baravardan ortiq o'sish demakdir. Bunday yuqori sur'atdagi o'sish asosan xususiy kuryer kompaniyalarining kengayishi, elektron savdoning faol rivojlanishi, aholi orasida onlayn xaridlar va tez yetkazib berish xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan izohlanadi.

Shu davr ichida yetkazib berilgan buyurtmalar soni ham jiddiy o'sishga erishgan. Agar 2020-yilda 820 ming dona buyurtma yetkazilgan bo'lsa, 2024-yilga borib bu ko'rsatkich 2 milliondan ortib, 2 million 50 ming donaga yetishi kutilmoqda. Bu esa 150 foizdan ortiq o'sishni bildiradi. Bu ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, soha faqat moliyaviy jihatdan emas, balki mijozlar bazasi va operatsion hajm jihatdan ham kengaymoqda. Bu raqamlar viloyatda pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq xizmatlar sifati, infratuzilmaning texnik holati, raqamli kuzatuv tizimlarining yetishmasligi va xizmat ko'rsatish tezligi kabi masalalar bu o'sishga mos tarzda rivojlanmayapti. Bu esa tizimni chuqur isloh qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pochta va kuryerlik xizmatlarining viloyatdagi rivojlanish imkoniyatlari va to'siqlarini aniqlash maqsadida SWOT tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi.(3-jadval).

3-jadval

Pochta va kuryerlik xizmatlarining viloyatdagi rivojlanish imkoniyatlari

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
Raqobatbardosh xususiy kompaniyalar sonining ortib borishi	Infratuzilmaning eskirganligi (ayniqsa, tumanlarda)
Samarqand shahrida mijozlar ehtiyojini qondirish imkoniyati	Hududiy xizmat qamrovining notekisligi
Elektron to'lov, mobil ilovalar joriy etilayotganligi	Malakali kadrlar yetishmovchiligi
Raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish boshlangani	Yetkazib berishning o'rtacha vaqti uzoqligi (qishloq hududlarida)
Imkoniyatlar (Opportunities)	Xavf-xatarlar (Threats)
Elektron tijoratning tez sur'atlarda o'sishi	Xususiy sektorni tartibga soluvchi aniq me'yorlarning yo'qligi
Raqamlashtirish dasturlarining qo'llab-quvvatlanishi	Raqobatbardosh kompaniyalar yo'qligi sababli monopolistik holatlar
Davlat investitsiyalarining yo'naltirilishi	Norasmiy xizmatlarning ortib borishi va nazoratning sustligi

Uchinchi jadval ma'lumotlari shuni anglatadiki, Viloyatda raqobatbardosh xususiy kompaniyalar sonining ortib borayotgani xizmat ko'rsatish sifati va tezkorligining oshishiga turtki bo'layotgan asosiy omillardan biridir. Ayniqsa Samarqand shahri bozorida elektron to'lov,

mobil ilovalar orqali buyurtmalarni boshqarish imkoniyatlari kengaymoqda. Raqamli texnologiyalar asosida xizmatlarni avtomatlashtirish jarayonlari ham bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilgan. Bu kuchli tomonlar xizmatlardan foydalanish qulayligini oshiradi va iste‘molchilarning qoniqish darajasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, viloyatning tuman va qishloq hududlarida infratuzilmaning eskirganligi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Hududiy qamrovning notekisligi, ya‘ni ayrim tumanlarda xizmatlarning deyarli mavjud emasligi aholining bir qismi uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Malakali kadrlar yetishmovchiligi, ayniqsa kuryerlar va texnik xodimlar tayyorlash borasida past darajada ekanligi xizmat sifatini pasaytiradi. Bundan tashqari, qishloq joylarda yetkazib berishning o‘rtacha vaqti anchayin uzoq bo‘lib, xizmatning tezkorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bozor salohiyatining o‘shirishida elektron tijoratning tez rivojlanayotgani muhim imkoniyat sifatida ko‘rilmog‘da. Onlayn savdolar ortgani sababli yetkazib berish xizmatlariga bo‘lgan talab ham ortmoqda. Bundan tashqari, davlat tomonidan raqamlashtirish siyosatini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion loyihalarga subsidiya ajratish kabi tashabbuslar mavjud. Davlat investitsiyalarining pochta infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirilishi kelgusida xizmat sifatini oshirish uchun muhim zamin yaratadi. Shunga qaramay, sektorni tartibga soluvchi aniq me‘yoriy hujjatlarning yo‘qligi ayrim xususiy subyektlar faoliyatida noaniqlik va muvofiqlik muammolarini keltirib chiqarmoqda. Ayni paytda yirik, raqobatbardosh kompaniyalarning yetishmasligi sababli ayrim hududlarda monopolistik holatlar shakllanmoqda, bu esa narx siyosati va xizmat sifati uchun xavf tug‘diradi. Shuningdek, norasmiy, litsenziyasiz ishlayotgan kuryerlik xizmatlarining ko‘payishi nazorat mexanizmlarining sustligini ochib bermoqda va bu bozordagi umumiy ishonch muhitiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Xulosa va takliflar. Samarqand viloyatida pochta va kuryerlik xizmatlarining hozirgi holatini o‘rganish, ularning iqtisodiy salohiyatini baholash va rivojlantirish istiqbollari tahlil qilish, bu sohaning nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki logistika tizimining muhim elementi sifatida ham strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Raqobat muhiti faqat viloyat markazida shakllanayotgan bo‘lsa, tumanlarda monopolistik xizmatlar ustunlik qilmoqda. Bu esa narx shakllanishi, xizmat sifati va mijozlar tanlov erkinligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Raqobatbardosh muhit yetishmasligi, xususiy sektor faoliyatini tartibga soluvchi me‘yorlarning mavhumligi, xizmat ko‘rsatishdagi sifatsizlik va norasmiy xizmatlarning ko‘payishi soha barqarorligiga tahdid solmoqda. Shu munosabat bilan, pochta va kuryerlik xizmatlar sektorini kompleks rivojlantirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish va logistika tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish lozim:

Birinchidan, Samarqand viloyatidagi mavjud pochta va kuryerlik punktlari kapital rekonstruksiya qilish, zamonaviy xizmatlarga moslashtirilish, ayniqsa, qishloq hududlarida xizmatlarning muqobil variantlarini (mobil ofislar, ko‘chma pochta xizmatlari) tashkil etish orqali pochta va kuryerlik xizmatlari infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xizmat ko‘rsatish ko‘lamini oshirish maqsadida transport vositalari yangilab, ekologik va iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlaydigan elektromobillar yoki gibrid texnikalar joriy etilish lozim.

Ikkinchidan, xizmat ko‘rsatish jarayonida jo‘natmalarga QR yoki RFID teglar biriktirilgan yagona milliy kuzatuv tizimi (national tracking system) tatbiq etish, aholi zich joylashgan hududlarda “Smart locker” tizimini joriy qilish, shuningdek, “avtomatik pochta qutilari”ni savdo markazlari, davlat idoralari va metro bekatlariga o‘rnatish hamda “Yagona mobil” ilova (“SamPost”) orqali xizmatlar buyurtmasi, to‘lov, kuzatuv, omborlarni band qilish kabi funksiyalarni integratsiyalash.

Uchinchidan, pochta va kuryerlik xizmatlari uchun kasbiy o‘quv markazlari tashkil etilish, logistik menejment, mijozlar bilan ishlash va raqamli platformalardan foydalanish mutaxassislarini tayyorlash hamda pochta va kuryerlik xizmatlarini sifatini oshirish maqsadida o‘rgatiladi kuryerlar uchun sertifikatlash tizimi, ichki reytinglar, xizmat sifati bo‘yicha baholash mexanizmlari joriy qilish.

To‘rtinchidan, xizmat ko‘rsatishda litsenziyasiz faoliyat yuritayotgan norasmiy kuryerlar faoliyatini tartibga solish, ular faoliyatini qonuniylashtirish orqali sog‘lom raqobat muhitini yaratish, viloyat tuman va chekka hududlarida xususiy kompaniyalar faoliyatini rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar, yer maydoni va bino ajratilishi kabi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish.

Beshinchidan, pochta va kuryerlik xizmatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga oid hududiy strategik rejalar ishlab chiqish orqali xizmat ko'rsatish infratuzilmasini raqamlashtirish, inson kapitali, investitsiya va normativ-huquqiy asoslarni tashkil etish orqali “Yagona strategik rivojlanish” konsepsiyasini ishlab chiqish.

Yuqoridagi taklif va tavsiyalar asosida pochta va kuryerlik xizmatlarini rivojlantirishga olib kelishi va buning natijasida Samarqand viloyatida pochta va kuryerlik xizmatlari sohasi salmoqli o'sish salohiyatiga ega bo'lishiga va mavjud muammolarni bartaraf etilishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, pochta va kuryerlik xizmat ko'rsatish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiyaning jadallashishiga olib keladi. Shu bilan birgalikda xizmat ko'rsatish jarayonida samarali boshqaruv, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish va inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali soha faoliyatini iqtisodiyotning yetakchi logistik tarmoqlaridan biriga aylantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:

1. UzReport. (2025). Mirziyoyev intends to turn national postal system into revenue-generating sphere. <https://uzreport.news/economy/mirziyoyev-intends-to-turn-national-postal-system-into-revenue-generating-sphere>
2. Teshabayev, T.Z., Otakuziyeva, Z.M., Bobokhujaev, Sh.I. (2019). Problems and Prospects of Creation of Digital Ecosystem in Postal Service of Uzbekistan. Atlantis Press. – <https://www.atlantispress.com/proceedings/csis-18/55913800>
3. Baltabayeva G.R., Ayupov R.H. va boshqalar. (2020–2023). Raqamli iqtisodiyot va logistika tizimlarida xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha ilmiy maqolalar. – Respublika ilmiy jurnallari
4. Chugh, R. & Sharma, N. (2020). Digital Transformation of India Post: Challenges and Opportunities. International Journal of Logistics Systems.
5. Lee, M.H. (2021). Artificial Intelligence Adoption in Korea Post: Efficiency and Customer Orientation. Korean Journal of Logistics Research.
6. Universal Postal Union (UPU), Digital Economy and Postal Sector Report, 2023. – www.upu.int.
7. Mirzaev Q. J., Boboqulov S. B., Janzakov B. Q. Raqamli iqtisodiyot/O'quv qo'llanma/Samarqand //SamISI, “STAP-SEL” MChJ. Nashriyot matbaa bo'limi, –2022-y. – 2022. – T. 86.
8. Bobokulov S., Usmanov S. Economic Importance of Housing and Communal Services //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2024. – T. 4. – №. 4. – C. 204-208.
9. World Bank (2022). Logistics Performance Index: Uzbekistan. www.worldbank.org.
10. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish qo'mitasi (2023). Pochta va kuryerlik xizmatlari bozori tahlili rasmiy hisoboti.
11. O'zbekiston pochta AJ rasmiy hisobotlari, 2024 yil. <https://uzpost.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
12. Express24 press-relizi, 2023 yil. <https://express24.uz>

<p>У.Нармурадов</p> <p>Анализ и состояние развития почтовых и курьерских услуг (на примере Самаркандской области)</p> <p>Аннотация. В данной статье проанализированы современные тенденции развития почтовых и курьерских услуг, их влияние на региональную экономическую деятельность, а также роль в повышении эффективности сферы услуг. В частности, на примере Самаркандской области исследована существующая инфраструктура, скорость доставки, объем оказываемых услуг и уровень внедрения цифровых технологий. Кроме того, в статье предложены рекомендации и практические предложения по повышению эффективности предоставления почтовых и курьерских услуг.</p> <p>Ключевые слова: оказание услуг, сервис, цифровизация, почтовые и курьерские услуги, цифровая трансформация, логистика, цифровизация, инновации, эффективность.</p>	<p>U.Narmuradov</p> <p>State and analysis of the development of postal and courier services (on the example of Samarkand region)</p> <p>Abstract. This article analyzes the modern development trends of postal and courier services, their impact on regional economic activity, and their role in enhancing service efficiency. In particular, the study examines the current state of service networks in Samarkand region, infrastructure level, delivery speed, service volume, and the implementation of digital technologies. The article also puts forward proposals and recommendations for improving the efficiency of postal and courier services.</p> <p>Keywords: services, service, digitalization, postal and courier services, digital transformation, logistics, digitalization, innovation, efficiency.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84 $\frac{1}{8}$. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.